

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

S.MAHMUDOVA

“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir”	6
	PEDAGOGIKA

X.Kadirov, B.Xamdamov

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
---	---

L.Yo‘Idosheva

Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
---	----

M.Alimjanova

Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
--	----

B.Xaydarov

Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
--	----

G.Absalamova

Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiysi tushunchasi.....	28
---	----

F.Mirzayeva

Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
--	----

IQTISODIYOT**T.Xaydarov, B.Karimov**

Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
--	----

FALSAFA, SIYOSAT**N.Hakimov, D.Amridinova**

Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
---	----

I.Raximov

O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari	48
---	----

R.Isamutdinov

“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
--	----

S.Xoliqov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari	57
---	----

TARIХ**M.Xurramov**

1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarda Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
---	----

R.Arslonzoda

Istiqlol yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
---	----

I.G‘ulomov, Z.Kasimova

O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish	76
---	----

G.Haydarov

Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
--	----

G.Dadamirzayeva

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati	88
---	----

A.Aduvali

Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
--	----

N.Komilov

Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
--	----

M.Darmonova

“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni.....	103
---------------------------------------	-----

L.Sokolova

Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari	107
--	-----

O.Zaripov

“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113
--	-----

**MISHEL MONTEN “TAJRIBALAR” ASARIDA OILADA FARZAND TARBIYASI
TUSHUNCHASI**

**ПОНЯТИЕ ВОСПИТАНИЯ РЕБЕНКА В СЕМЬЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ МИШЕЛЯ
МОНТЕНЯ “ОПЫТЫ”**

**THE CONCEPT OF EDUCATION OF A CHILD IN A FAMILY IN THE WORK OF MICHEL
MONTAIGN “EXPERIENCES”**

Absalamova Gulmira Sharifovna¹

¹Absalamova Gulmira Sharifovna

– Toshkent davlat agrar universiteti
Samarqand filiali assistenti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada XVI-asrda yashab ijod etgan fransuz mutafakkiri Mishel Monten “Tajribalar” asarida aynan farzand tarbiyasiga berilgan fikrlari va o’sha davrda o’z asarida foydalangan so’zlari uning mazmun jihatiga to’xtalamiz. Oilaviy ma’naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida xar bir oila a’zolarining muayyan ma’naviy dunyoga ega bo’lishi ular o’tasidagi munosabatlarni asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma’naviy fazilatlari er-xotinlik munosabatlarining sharqona an’analari insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma’naviy olami o’zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma’naviy qadriyatlarni o’zida mujassamlashtirishi muhimdir.

Maqolada qiyosiy va paradigmatic metodlar asosida namunalar to’plandi. Zotan o’sib borayotgan yosh avlodni ma’naviyatlari, sabrli qilib tarbiyalashda ushbu maqolada berilgan namunalar ham o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Аннотация

В данной статье мы остановимся на содержании идей французского мыслителя Мишеля Монтена, жившего и творившего в XVI веке, в его работе “Опыты” о воспитании детей и на словах, которые он использовал в своей работе в то время. Развитие семейной духовности основано на взаимоотношениях между каждым членом семьи как личностью, обладающей определенным духовным миром. Духовные качества отца и матери в семье Восточные традиции взаимоотношения супругов определяют уровень человечности и нравственности. Важно, чтобы духовный мир семьи воплощал такие духовные ценности, как взаимоуважение, признательность, сотрудничество, терпимость, доброта, сострадание, терпение, человечность, благородство, уважение к взрослым, уважение к малышам. В статье собраны примеры, основанные на сравнительном и парадигматическом методах. Примеры, приведенные в статье, также оказывают влияние на духовное и терпеливое воспитание подрастающего поколения.

Abstract

In this article, we will focus on the content of the ideas of the French thinker Michel Montaigne, who lived and worked in the XVI century, in his work "Experiments" on the upbringing of children and the words he used in his work at that time. The development of family spirituality is based on the relationship between each member of the family as a person who has a certain spiritual world. The spiritual qualities of the father and mother in the family The Eastern traditions of the couple's relationship determine the level of humanity and morality. It is important that the spiritual world of the family embodies such spiritual values as mutual respect, appreciation, cooperation, tolerance, kindness, compassion, patience, humanity, nobility, respect for adults, respect for the little ones. As a result, the family is formed as a place of spirituality. Also, the third volume work "Experiments" by French thinker Michel Montaigne deals with the analysis of the views expressed on the upbringing of the child. The article collected samples based on comparative and paradigmatic methods. The examples given in this article also have an impact on the spiritual and patient upbringing of the younger generation.

Kalit so’zlar: farzand tarbiyasi, ma’naviy fazilat, intizom, ovqatlanish, inson hayoti, jismoniy jazo, bola-podshoh.

Ключевые слова: воспитание детей, духовность, дисциплина, питание, человеческая жизнь, телесные наказания, ребенок-царь.

Keywords: child rearing, spirituality, discipline, nutrition, human life, corporal punishment, child-king.

KIRISH

Ushbu maqolada Yevropa Uyg'onish davri gumanisti M.Montenning adabiy-falsafiy merosi, uning “Tajribalar” asarida oila tarbiyasi fazilatlari tushunchasining leksik-semantik maydoni aniqlanib, “Tajribalar” asarida oila tarbiyasi fazilatlari tushunchasining konsepsiysi xamda xulq-atvor, sa’y xarakatlarning birligi g’oyasi bilan bog’lik leksika chin inson shaxsini tarbiyalashda muhim omil ekanligi leksik-semantik, kombinator-komponent tahlil orqali asoslangan. Mishel Monten ilmiy-

PEDAGOGIKA

ma'naviy merosida farzand tarbiyasi tushunchalari masalasidagi axloqiy-estetik muammolar yechimini topish yo'llaridagi bonyodkorlikka undovchi g'oyaviy asos ekanligi aniqlangan.

"Tajribalar" asaridagi oila tarbiyasi fazilatlari tushunchasining sintaktik, leksik-semantik va stilistik xususiyatlari tadqiq etilgan, uning o'zbek tiliga tarjima qilish yechimi ishlab chiqilgan. Mishel Monten XVI-asr arbobi bo'lsada bugungi kunga qadar ham, vaholangki, bundan keyin ham dolzarbligini, hayotimizdagи ahamiyatini saqlab qolaveradi.

Muallifning "Tajribalar" asarida keltirilgan ushbu jumlesi fikrimizni yanada mustahkamlaydi: "Or à considerer cette simple occasion d'aymer noz enfans, pour les avoir engendrez, pour laquelle nous les appellons autres nous mesmes : il semble qu'il y ait bien une autre production venant de nous, qui ne soit pas de moindre recommandation. Car ce que nous engendrons par l'ame, les enfantemens de nostre esprit, de nostre courage et suffisance, sont produits par une plus noble partie que la corporelle, et sont plus nostres. Nous sommes pere et mere ensemble en cette generation : ceux-cy nous coustent bien plus cher, et nous apportent plus d'honneur, s'ils ont quelque chose de bon. Car la valeur de nos autres enfans, est beaucoup plus leur, que nostre : la part que nous y avons est bien legere : mais de ceux-cy, toute la beauté, toute la grace et prix est nostre. Par ainsin ils nous representent et nous rapportent bien plus vivement que les autres" [1,295] ya'ni bizlar bolalarimizni sevishimizning oddiy sababi, ularni dunyoga keltirganimizdir, biz ularni ikkinchi menimiz deb ataymiz, ayni paytda biz yaratgan yana boshqa narsa borki, u butunlay biznikidir va qadri ham kam emas: ko'nglimiz yaratgan va aqlimiz mahsuli bo'lgan va ruhiy fazilatlarimizdan yaralgan narsalar boshqa yaxshi a'zolarimiz tomonidan yaratilgan: ular bizning farzandlarimizdan ko'ra ko'proq bizga tegishlidir; ularni dunyoga keltirishda biz ham ona, ham ota bo'lamiz, ularni biz qiyinchilik bilan qo'lga kiritamiz, agar, ularda bir yaxshi narsa bo'lsa, ular bizga ko'proq sharaf olib keladi. Bolalarimizning obro'si esa o'zlariniki, bizniki emas, u yerda bizning ishtirokimiz juda kam, ayni paytda biz yaratgan ruhiy ijod mahsulimiz butun go'zalligi, nazokati va butun qadri bilan birga mutloq bizga tegishlidir. Shuning uchun ham ular bizni jismoniy avlodimizga nisbatan bizni yorqinroq tanitadi va aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada Mishel Montenning "Tajribalar" asaridagi "oila tarbiyasi fazilatlari" tushunchasi va uning o'zbek tilida ekvivalent ifoda etilishini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilishdan iborat. Shuningdek M.Monten "Tajribalar" asarida oila va farzand tarbiyasiga oid boblari "De l'affection des pères aux enfants", "De l'institution des enfants", "De la colère", "Des livres" va boshqa boblaridan mavzuga tegishli leksikanani aniqlab olish uchun foydalanildi. Bundan tashqari fransuz adabiyotida Mishel Monten haqida fikr yuritgan uning yozganlarini targ'ib qilgan ijodkorlardan: Baron, Qu'est-ce que l'éducation, R.Trinquet, La Jeunesse de Montaigne, Ses origines familiales, son enfance et ses études, Y.Bellenger, "Le jourd'hui mourra en celui de demain", R.Granderoute, "L'enfance dans les Essais ou l'éducation du jugement" asarlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Éducation fransuz tilida jenskoy rod oti tarbiya, tarbiya berish, ta'lim-tarbiya kabi ma'nolari o'zbek tilida mavjud. Mishel Monten farzand tarbiyasiga oid asar boblarida "education" ta'lim so'zini atigi uch marotaba birinchi kitob 25 bob "Du pédantisme", 143-sahifasida, ikkinchi kitob 8 bob "De l'affection des pères aux enfants" 389-sahifasida va 31 bob "De la colère" 714-sahifasida tilga olib ketgan. Ta'lim so'zini berishda u antropogen va axloqiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan "institution" so'zini afzal ko'rgan. Farzand tarbiyasi haqida birinchi kitob, 26 bobida "la plus grande difficulté et importante de l'humaine science semble estre en cet endroit où il se traite de la nourriture et institution des enfans" [2,149] ya'ni inson aqli aynan bolani parvarishlash va tarbiyalash sohasida eng katta qiyinchilikka uchraydi, deya aytib o'tadi.

"Discipline de l'enfance" ya'ni "intizom" bilan cheklanmagan ta'limning shubhasiz markaziyligi, shuningdek, yaxshi davlat hukumatiga nisbatan ham tasdiqlab ikkinchi kitob 31 bobda aytib o'tgan: "Qui ne voit qu'en un estat tout dépend de son education et nourriture?" [3,714] -davlatda hamma narsa uning ta'limi va ovqatlanishiga bog'liqligini kim ko'rmaydi?" (II.31.714).

Farzand tarbiyasidagi muhimlilik va qiyinchilik to'grisida uning qiymati axloqiy-siyosiydir deya sintez qiladi: "Une bonne institution, elle change le jugement et les meurs" [4.660] ya'ni "Yaxshi tarbiya, hukm va o'limni o'zgartiradi". Bu sabab ta'lim va axloqning o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi, albatta. Ta'limning yakuni tushunchalar va usullarni o'rganish emas, balki bilimdondan ko'ra dono

odamni qurish va takomillashtirishdir [5.414] deydi, mutafakkir. Fikrning davomi sifatida Plutarx "An *virtus doceri possit*" asarida tarbiyaning maqsadi donolikka erishishdir, ularsiz boshqa bilim hosilasi bo'lmaydi" [5.414] deya ta'kidlaganini keltirish o'rinnlidir.

Ezgulik yo'lidagi intilish va keskinlik nafaqat bolalikni, balki balog'atni ham nazarda tutadigan uzlusiz, tugallanmagan jarayonga o'xshaydi. Monten "muntazam ta'lim" tushunchasini doimiy ravishda ozod inson hayotining har bir bosqichida inson tarbiyasi asoschilarining tushunchalaridan biri sifatida o'z ichiga oladi va ko'rib chiqadi [6.1972].

Ta'lim aqliy qobiliyatlarni axloqiy energiyaga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan yechimdan to'g'ri foydalanish, umumiy fikrda sensus communis, aql operatsiyalarini axloqiy harakatlarga aylantirish va tarjima qilish uchun mos bo'lgan nazariy amaliyat [7. 1994].

Montenning mavhum fikrlash sababining sof rasmiyatchiligini tanqid qilish, ba'zida aqldan mantiqiy va suhbat funksiyalarini o'z ichiga olgandek tuyuladi, ularni o'z-o'zidan va oxirida saqlaydigan kishining diqqatiga qaratilgan *stulta logicalia* mantiqning kengaytmasi sifatida ishlatib narsaning ko'rinishini niqoblaydi. "Ijtimoiy" ta'limga e'tibor bir necha bor tasdiqlangan. Bu o'quvchining "ko'zlar" bo'lishi kerak va nafaqat dunyo uning kitobi bo'lishi kerak! Guman qilingan motivatsiya Monten o'quvchini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishni xohlayotganini aniq ko'rsatmoqda [8,52-57].

Enfance fransuz tilida jenskoy rod oti bolalik, bolalik yillari kabi tarjimalari mavjud asarda 64 marta qo'llangan. *Enfant(s)* mujskoy rod oti farzand, bola ma'nolarida tarjima qilinadi, asarda 371 marta birlik va ko'plik shakllarida ishlataligan.

Monten o'zi va oilaviy avlodlari haqida "Tajribalar" asarida aytib o'tadi. Montenden oldin go'dakligida vafot etgan ikkita boladan tashqari (u aka-ukalarning eng kattasi bo'lgan), Pier Eykemning "*tous d'une mère*" barchasi bir onadan sakkiz farzand dunyoga kelgan [9. 764]. 1565- yil sentyabr oyida Mariga uylangach Monten ketma-ket oltita qiz farzand ko'radi ammo ulardan faqat bittasigina tirik qoladi [10, 100-116]. Asarda Monten farzandlari haqida gapirganda beparvodek ko'rinadi: "*J'en ai perdu, mais en nourrice, deux ou trois, sinon sans regret, au moins sans fâcherie*" [11,61], "*Ils meurent tous en nourrice*" [12, 389] ya'ni ular chaqaloq vaqtida vafot etdilar, deya aytadi. Leonorning ulg'ayishini kuzatsa, u olti yoshga to'lgunga qadar faqat yumshoq so'zlar bilan murojaat qiladi [12, 389]. Monten farzand tarbiyasiga rafiqasini yuzlantiradi: "*je ne m'empêche aucunement de ce gouvernement: la police féminine a un train mystérieux, il faut le leur quitter*" [13,856] men bu boshqaruvga halaqtib bermadim, ayol kishi sirli band bo'lib shug'ullanadilar, ularga buni qo'yib berish kerak, deya ta'kidlaydi. Shubhasiz, boshqacha bo'lar edi lekin har doim jismoniy jazoni juda istamagan holda tarbiya qildik -"*sans doute en aurait-il été autrement mais toujours avec grande réticence pour les punitions corporelles*,"(II.8.389)deb yozadi asarda.

Bir farzand tarbiyasidagi fikrlar asosan ikkita "*Du pédantisme*"(I.25), "*De l'institution des enfants*"(I.26), shuningdek "*De l'affection des pères aux enfants*"(II.8) boblarini qamrab olgan. Ohirgi bobda ayniqsa Monten onalarning farzand tarbiyasidagi o'rnini qoralaydi "*affection naturelle*" -tabiiy mehr ko'pincha onani qaram bola uchun qandaydir "*inique et fantastique*" - g'ayritabiyy va nohaq afzal ko'rishga olib keladi degan fikr mulohazalarini aytgan: "*Car cet appétit déréglé et goût malade qu'elles ont au temps de leurs grossesses [grossesse], elles l'ont en l'âme en tout temps. Communément on les voit s'adonner aux plus faibles et malotrus [difformes, chétifs], ou à ceux, si elles en ont, qui leur pendent encore au col*" -chunki bu tartibsiz ishtaha va kasallikga moyillik ularning homiladorlik paytida paydo bo'ladi va bu hamma vaqt ularning qalbida mavjud bo'ladi, odatda biz ularning zaif (shaklsiz, mayin) bo'yniga osilganlariga berilib ketayotganini ko'ramiz, deydi faylasuf. Qo'shimcha qilib hayvonlarni ta'kidlab o'tadi: "*qui n'ont connaissance de leurs petits, que pendant qu'ils tiennent à leur mamelle*" [14,399] ya'ni ular kichkintoyini faqatgina yelinini tortqilaganda taniydlilar. Monten "*meilleur père qui fut onques*"-dunyodagi eng yaxshi ota unvoniga sazovor bo'ldi, har doimgidek yosh bolalarga hurmat va ota-onalik ko'rsatish g'oyalarini zabit etgan [6,1972]. Monten fikrlariga ko'ra "*enfant de maison*" -uy bolasini tarbiyalash haqidagi g'oyalariga kelsak, ular ham ko'p jihatdan bolalik davridagi o'z tajribasi va his-tuyg'ulariga asoslanadi: "*sévère douceur*" [15,165] - qattiqqo'l yumshoqlikda "*tendresse*" -mehrni hisobga oladi, bola buni qilmasdan, masalan, uning e'tiborining obyekti qilmasdan, masalan, u bilan o'ynaganda, bola-podshoh bu yolg'on "*grandeur*" -buyuklik uchun aslida esa "*incommode*" [16,918] noqulaylik deya ta'kidlaydi. U tashkil etgan bu his-tuyg'ular va xatti-harakatlar fazilatidan [17, 23-33] kattalar va hatto keksa odam ham hayotning birligini ta'minlaydigan narsani tortib oladi deydi: *Enfant, homme, vieil, j'ai toujours cru et jugé de même* [15,165].

XULOSA

PEDAGOGIKA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Mishel Monten o‘z asarini yozishda tasvirlashda har bir fazilatga oid so‘zini bejizga tanlamagan. Tadqiqotimiz jarayonida farzand tarbiyasi ostidagi so‘zlarning zamirida olam-olam ma’no yashiringan. Haqiqatan ham har bir ota-onan o‘z farzandining tarbiyasi uchun javobgar hisoblanadi. Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma’naviy sog‘lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishidir. Oilada sog‘lom muhit mavjud bo‘lgandagina, ularda har tomonlama sog‘lom, barkamol inson shakllanadi. Yoshlar tarbiyasi xususan jismonan baquvvat, aqlan sog‘lom, umuminsoniy madaniyat, darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda oila ma’naviyatining tutgan o‘rni alohidadir.

ADABIYOTLAR ro‘yhati (References)

1. Montaigne “Les essays” Livre II, Chapitre 8 “De l'affection des pères aux enfants” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947. p-295
2. Montaigne “Les essays” Livre I, Chapitre 26 “De l'institution des enfants ” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947. P-149
3. Montaigne “Les essays” Livre II, Chapitre 31 “De la colère” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947.P-714
4. Montaigne “Les essays” Livre II, Chapitre 31 “De la présomption” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947. P-660
5. Montaigne “Les essays” Livre II, Chapitre 10 “Des livres” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947. P-414
- 6.R.Trinquet, La Jeunesse de Montaigne, Ses origines familiales, son enfance et ses études, Paris, 1972
- 7.Baron, Qu'est-ce que l'éducation ? M., Fichte, Lavelle, Paris, 1994,55
8. F.Anselme, « Montaigne ou l'éducation du jugement », Aux sources de la pédagogie moderne, Bruxelles, 1950, 52-57
9. Montaigne “Les essays” Livre II, Chapitre 37 “De la ressemblance des enfants aux pères” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947.P-764
10. Y.Bellenger, “Le jourd’hui mourra en celui de demain”: Montaigne et la jeunesse », MS, 2, 1990, 100-116
11. Montaigne “Les essays” Livre I, Chapitre 14 “Que le goût des biens et des maux dépend” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947.P-61
12. Montaigne “Les essays” Livre II, Chapitre 8 “Que le goût des biens et des maux dépend” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947. P-389
13. Montaigne “Les essays” Livre III, Chapitre 5 “Sur des vers de Virgile” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947.P-856
14. Montaigne “Les essays” Livre II, Chapitre 8 “Que le goût des biens et des maux dépend” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947.P-399
15. Montaigne “Les essays” Livre I, Chapitre 26 “De l'institution des enfants” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947.P-165
16. Montaigne “Les essays” Livre III, Chapitre 7 “De l'incommodité de la grandeur” Garden City, N. Y. : Doubleday, 1947.P-918
17. R.Granderoute, « L'enfance dans les Essais », BSAM, 15-16, 1983, 23-33

(Taqrizchi: T.Egamberdiyeva – pedagogika fanlari doktori, professor